


2019 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda 1110,4 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 56,6 % i yoki 628,9 mlrd. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korhona, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 43,4 %i yoki 481,5 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o`tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 1,1 % punktga kamayib, 11,9% ni yoki 132,7 mlrd. so`mni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari:

Respublika byudjeti 125,8 mlrd. so`m	O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 1,4 mlrd. so`m	Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi 5,5 mlrd. so`m
---	---	---

**Jami asosiy
kapitalga
investitsiyalar**

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari

Aholi mablag`lari 285,8 mlrd. so`m	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari 219,4 mlrd. so`m	To`g`ridan-to` g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar 247,3 mlrd. so`m	Korhona mablag`i 225,2 mlrd. so`m
---	---	---	--

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 1,1 % punktga ko'payib, 88,1 % ni yoki 977,7 mlrd. so`mni tashkil etdi.


Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari
bo'yicha tarkibi

	mlrd.so`m	o`shish surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	1110,4	107,8	100,0
Republika byudjeti	125,8	395,3	11,3
Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	5,5	0,0	0,5
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi	-	-	-
Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	-	-	-
O`zR kafolati ostida xorijiy Kreditlar	1,4	1,4	0,1
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	219,4	71,0	19,8
To`g`ridan-to`g`ri xorijiy Investitsiya	212,1	8,8 m	19,1
Boshqa xorijiy Investitsiya va kreditlar	35,2	-	3,2
Aholi mablag`i	285,8	104,0	25,7
Korhona mablag`lari	225,2	86,0	20,3

Asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga, mlrd.so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha mlrd.so'mda):							
		Respublika byudjeti	Korhona va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari
Viloyat jami:	1 110,4	125,9	225,2	285,8	248,6	5,5	-	-	219,4
Farg'ona sh	203	17,7	90	35,8	2,9	-	-	-	56,6
Qo'qon sh	105,4	15,1	45	13,0	15,4	-	-	-	16,9
Quvasoy sh	56,1	0	9,8	14,2	3	-	-	-	29,1
Marg'ilon sh	51,8	9,8	9,1	16,3	3,2	-	-	-	13,4
Oltiariq	69,8	3	6,3	33,4	0,8	5,5	-	-	20,8
Qo'shtepa	32,7	4,2	2,9	22,5	0,4	-	-	-	2,7
Bag'dod	12,7	1	1,1	7,2	0,1	-	-	-	3,3
Buvayda	40,7	2,3	3,7	9,3	16	-	-	-	9,4
Beshariq	221,4	7	3,2	10,3	198,8	-	-	-	2,1
Quva	45,4	8,7	7	23	0,3	-	-	-	6,4
Uchko'prik	34,5	1,7	11	6,1	5,9	-	-	-	9,8
Rishton	29,8	5,8	3,4	15,8	0,1	-	-	-	4,7
So'x	15	6,6	1,1	5,6	0,1	-	-	-	1,6
Toshloq	21,2	1,5	2,5	14,6	0,1	-	-	-	2,5
O'zbekiston	29,2	6,3	5,5	7	0,1	-	-	-	10,3
Farg'ona t	43,9	10,1	12,2	5,1	0,6	-	-	-	15,9
Dang'ara	35,2	3,4	4,7	20,6	0,1	-	-	-	6,4
Furqat	27,4	2,6	4,7	18,8	0	-	-	-	1,3
Yozyovon	35,2	19,1	2,0	7,2	0,7	-	-	-	6,19


Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati %



Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Beshariq tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 143,1 %, Furqat tumanida 137,1 %, Quva tumanida 128,8 %, Buvayda tumanida 118,6 % ni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida o'sish kuzatilmagan bo'lib, Rishton tumanida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 75,1 %, Uchko'prik tumanida 71,1 % ni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar




Farg'ona viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,8 %ni tashkil etdi. Bu albatta o'tgan yillarga nisbatan Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha bajarilgan ishlar bilan izohlanadi.

Jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hajmidagi ulushi bo'yicha hududlar kesimida Beshariq tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,9 % i o'zlashtirildi.

Farg'ona shahrida ham katta hajmdagi investitsiyalar o'zlashtirilib, viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmidagi ulushi mos ravishda 18,3 % va 203,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Bag'dod tumanida esa o'zlashtirilgan investitsiyalarning Viloyatda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi eng kam ulushi 1,1 % l qayd etib, 12,7 mlrd.so'mni tashkil etdi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 566,0 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 51,5 %ini tashkil etdi, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 485,0 mlrd.so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 43,7 %) va boshqa xarajatlarga 59,4 mlrd. so'm (5,4 %) o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (mlrd. so'mda)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish
tarkibi (jami hajmdagi ulushi % da)



■ Yangi qurilish ■ Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qurollantirish ■ Boshqalar

Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 514,0 mlrd.so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 46,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 461,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 41,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 12,2 %, ya'ni 135,3 mlrd.so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


	Yanvar–mart			
	2018 y.	umumiy hajmga nisbatan foizda	2019 y.	umumiy hajmga nisbatan foizda
Jami, mlrd.so'm	872,3	100,0	1 110,4	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	281,4	32,3	129,2	11,6
Tog'–kon sanoati	13,5	1,5	205,5	18,5
ishlab chiqarish sanoati	98,3	11,3	138,8	12,5
elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash	13,1	1,5	23,6	2,1
suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	80,8	9,3	11,7	1,1
Qurilish	19,4	2,2	25,6	2,3
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni tamirlash	32,6	3,7	50,7	4,6
tashish va saqlash	45,0	5,2	43,0	3,9
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,1	0,7	11,1	1,0
Axborot va aloqa	6,0	0,7	1,0	0,1
moliyaviy va sug'urta faoliyati	3,0	0,3	17,0	1,5
proffesional, ilmiy va texnik faoliyat	9,7	1,1	12,7	1,2
Ta'lim	1,5	0,2	64,4	5,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7,7	0,9	33,3	3,0
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	231,4	26,5	286,9	25,8
sanat, ko'ngil ochish va dam olish	5,2	0,6	10,2	0,9
Boshqa faoliyat turlari	17,6	2,0	45,7	4,1

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar




Joriy davrda Viloyatda xorijiy investitsiyalar hajmi 248,6 mlrd so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 22,4 % i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 171,5 % ga o'sdi. Bunda O'zR xukumati kafolati ostida xorijiy investitsiyalar hajmi 1,3 mlrd. so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 0,1 % i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 % i. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 212,1 mlrd.so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 19,1 % i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8 marttaga o'sdi va qolgan 35,2 mlrd.so'm boshqa manbalar hisobidan o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi % da



Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 245,0 ming kv.m, bo`lgan 1280 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo`lib, ulardan umumiy maydoni 182,7 ming kv.m. bo`lgan 888 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 12,2 ming kv.m. 16 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng ko`pi Farg`ona shahrida ishga tushirilgan 26,4 ming kv.m. va u viloyat bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 10,8 %ini tashkil etdi. Keyingi o`rinlarda Quva, Oltiariq tumanlari egallagan bo`lib, viloyat bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning mos ravishda 9,5 va 12,2%ini tashkil etishgan. Eng kam turar joy O`zbekiston tumanida ishga tushirilgan bo`lib, viloyatdagi ulushi 1,2 %ni tshkil etdi.

Fargo'na viloyat xaritasi



Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul

O'Umarov

Aloqa telefoni:

0373 241-72-75